

Oila muqaddasligi – nafaqat shaxsiy, balki jamiyatning kelajagini belgilovchi asosiy omildir. Oilaning barqarorligi jamiyat taraqqiyotining kalitidir. Mustahkam oila orqali insonlar ezgulik, mehr-muhabbat, sabr-toqat va hamjihatlikni o‘rganadilar. Shuning uchun oilaviy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish har bir insonning muqaddas bu

JALOLIDDIN MANGUBERDI TARIXDAGI O‘RNI VA UNING BUGUNGI KUNGA TA’SIRI

Quronboyeva Gulchiroy Umirbek qizi,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Sadinov Ma’rufjon Normo’minovich,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jaloliddin Manguberding shaxs sifatidagi tarixdagi o‘rni va uning bugungi kunga ta’siri haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi, vatanparvar sarkarda, Chingizxon, mo‘g‘ullar, Nasaviy

O‘zbek xalqining ozodlik va milliy mustaqillik uchun kurashlari tarixida Xorazmshohlarning so‘nggi vakili Jaloliddin Manguberding o‘ziga xos o‘rni bor. Manbalarda Jaloliddin Manguberding mo‘g‘ullarga qarshi kurashlari borasida ko‘pgina ma’lumotlar mavjud bo‘lsa-da, uning diplomatik faoliyati hanuzgacha chuqur o‘rganilmagan. Xususan, Jaloliddin Manguberding Hindiston va Yaqin Sharqdagi hukmdorlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga intilishlari hamda buning natijalari borasidagi ma’lumotlarga aniqlik kiritish zarur. Xorazmshoh hukmdorning ushbu harakatlari Sind (Hind) daryosi bo‘yidagi mag‘lubiyatdan so‘ng mo‘g‘ul qo‘shiniga qarshi kurashish uchun ittifoqchilar kerakligini anglagan holda siyosiy faoliyat olib borish zaruriyati bilan bog‘liq bo‘lib, maqolada masalaning ayrim jihatlarini manbalar tahlili asosida ochib berishga harakat qilindi.

Xorazmshoh anushteginiylar davlatining so‘ngi vakili, vatanparvar sarkarda, mo‘g‘ullarga qarshi tolmas kurashchi Jaloliddin Manguberdi haqidagi qarashlar turli-tuman va ziddiyatli masalalardan biri hisoblanadi. U haqdagi ilk yozma manbalardan tortib, hozirgi kungacha bo‘lgan davr tadqiqotlarida fikrlar turli-tuman bo‘lsa-da ularning umumiy o‘zagida Jaloliddin Manguberding vatanparvar sarkarda,

Chingizxonning munosib raqibi bo'lishi bilan birga no'noq siyosatchi bo'lganligi fikri hukmron qarash hisoblanadi.

Shu paytgacha deyarli barcha manbalar va shu paytgacha olib borilgan tadqiqotlar natijalari bir necha avlod tarixchi-tadqiqotchilari tomonidan ko'p bora tahlil qilingan. Ammo, ularning barchasida yuqoridagi fikr shakllanganligidan kelib chiqib, bu tahlillarning hammasi ham ilmiy jihatdan to'la-to'kis amalga oshirilmaganligining guvohi bo'lamiz. Jaloliddin og'ir bir paytda tarix sahnasida paydo bo'lgan edi. Uning davri Movarounnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi mo'g'ullar tomonidan istilo etilgan, Xorazmshohlar qo'shini yakson qilingan, amirlarning bir qismi xoinlik, qolgani o'z joni-mulkini asrash yo'liga tushgan, sulton mamlakatni o'z holiga tashlab qo'ygan, o'zaro sarosima va tahlika hukm surgan bir vaqtga to'g'ri keldi. Jaloliddin shunday bir og'ir vaziyatda, Vatan va xalq erki uchun kurashib, mo'g'ullarga qarshi 11 yil davomida kurash olib bordi, 14 marotaba mo'g'ullarga qarshi ot surib, uning 13 tasida g'oliblikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Jaloliddin sarkardalik qobiliyatini juda erta namoyon qilgan. Nasaviyning yozishicha, Kushpuxonni mag'lub etgan Jo'chixon (Nasaviy uni "Dushixon" deb ataydi) boshliq mo'g'ul qo'shini bilan sulton Alouddin lashkarlari o'rtasida bo'lib o'tgan ilk jangda Xorazm qo'shini omon qoldi va dushmandan "qasos o'chi olindi". Juvayniy va Rashididdinning yozishicha, bu jangda o'ng qanotga Jaloliddin qo'mondonlik qilgan. Jang 1216-yilda bo'lib o'tgani e'tiborga olinsa, Jaloliddin 17 18 yoshidayoq o'zini iste'dodli va jasoratli sarkarda sifatida namoyon etgani ma'lum bo'ladi.

Jaloliddinning sarkardalik dahosiga xos yana bir xususiyati shundaki, u dushmanga kutilma gan bir paytda yashin tezligida zarba bergan. Dushman ittifoqchilari bilan qo'shib ulgurmasidan oldin, ularni bitta-bitta tor-mor keltirgan (bu usulni keyin o'tgan mashhur sarkardalar, ayniqsa, Napoleon ko'p qo'llagan).

Jaloliddin Xorazmshoh haqida turli davrlarda bitilgan o'nlab asarlar orasida eng ishonchlisi, xolis yozilgan tarixiy manbalardan biri bu Shihobiddin Muhammad Nasaviyning "Siyrat us-sulton Jaloliddin Manguberdi", ya'ni "Sulton Jaloliddin Manguberding hayot tafsiloti asaridir. Darhaqiqat, umri mo'g'ul parning muttasil hujumi, ta'qib-u tazyiqi ostida o'tgan Jaloliddin Manguberdi, otasi Sulton Alouddin Muhammad tomonidan boy berilgan Xorazmshohlar saltanatini, mamlakatning janubiy va g'arbiy qismida yangidan tikladi hamda o'n bir yil bosqinchilar bilan jang qilib, mislsiz qahramonliklar ko'rsatdi.

Nasaviy Jaloliddin Manguberding munshiysi, shaxsiy kotibi bo'lgan, farmonlar, yozishmalar uning qo'li bilan bitilgan, saroydagi qabullarda, safarlarda u doim sulton

yonida bo'lgan. Muallif Jaloliddin tarixida bevosita o'zi ishtirok etgan hamda ko'rgan, bilgan voqealar va ishonchli odamlarning hikoyalari asosida yoritgan.

Nasaviyga xos qimmatli xususiyat shundaki, garchi voqea-hodisalarni Xorazmshohlar tomonida turib, vatanparvar muallif nigohi bilan yoritgan bo'lsa-da, uning uslubida aniqlik va tanqidiy nuqtai nazar ustunlik qiladi. Zero, u ushbu asarini Jaloliddinning o'limidan 10 yildan keyin yozgan, ya'ni Xorazmshohlar sulolasi tamom bo'lgandan keyin tarixni sahifalarga bitgan. Shuning uchun, u bu jarayonda xushomad, madh va mubolag'alardan uzoq bo'lgan, deya olamiz. Nasaviy garchi taniqli tarixchi bo'lmasa ham, o'sha davrning boshqa tarixchilari ko'ra olmagan tarixiy haqiqatni teran ilg'ay olgan va o'z asarida uni dalillar asosida xolis aks ettirishga erishgan.

Sulton Jaloliddin xizmatiga o'z hayotini bag'ishlagan, uning so'nggi 7 yili mobaynida doimiy hamrohi bo'lgan, Sulton vafotidan so'ng, uning hayot yo'lini tasvirlovchi asar yozgan va unda Sultonga xos bo'lgan dovyuraklik, adolatlilik, kamtarinlik fazilatlarini, bizning nazarimizda, haqqoniy ko'rsata olgan alloma an-Nasaviy uning vafotidan 6 yil o'tgach o'z hukmdori to'g'risida shunday ta'rif beradi: "Jaloliddin 1198-yil Alouddin Muhammad va uning turkman kanizagi Oychechakdan tug'ilgan. U bug'doyrang, o'rta bo'yli, turkiy qiyofali va turkiycha gapiradigan kishi edi. Shu bilan birga u forsiyda ham so'zlasha olardi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, yuqorida hikoya qilganim janglardagi faoliyatini eslab o'tish kifoya qiladi. U sherlar orasida eng zo'r arslon edi, dovyurak chavandoz, lashkar orasida eng botiri bo'lsa-da halim, muloyim inson edi. U nihoyatda jiddiy, kamgap, kulish o'rniga, faqat jilmayib qo'yardi. U adolatni xush ko'rardi, faqat u yashagan davrda yuz bergan fitnalar uni yengib qo'ydi. Qo'l ostidagi odamlarning og'ir hayotini yengillashtirishni yaxshi ko'rardi, ammo u yashagan davrdagi alg'ov-dalg'ovlar, zamon qonunlari uni zulm qilishga majbur etdi". Nasaviy Jaloliddinni olijanob, chiroyli xulqli musulmon boshliq sifatida tasvirladi. Lekin uning oxirgi so'ziga nazar solsak, Jaloliddinning Hindistondan qaytgandan keyingi xatti-harakatlarini balki qaysidir ma'noda izohlashimiz mumkin bo'lar. Ya'ni, u nafaqat mo'g'ullar va nasroniylar bilan, hatto birodarlari musulmonlar bilan kurashib, nohaq qon to'kilishiga yo'l qo'yib berdi. Buni ko'pgina hududlarda Xorazm askarlarining qilmishlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Uning jang maydonidagi jasorati, shijoatiga tarix shohid bo'lganidek biz ham guvoh bo'ldik. Muhammad Xorazmshoh mo'g'ullarning jang maydonidagi mahorati va qaytmasligini ko'rgandan keyin qalbiga qo'rquv tushib, ular bilan ochiqchasiga urushishga yuragi betlamay, partizancha urush yo'li haqqoniy tanlaganda o'g'li Jaloliddin otasiga mardlik qanday bo'lishi kerakligini so'zlar bilan ifoda qilgandi. O'shanda u otasiga: "Siz qo'shinga buyruq bering-da, o'zingiz bir chetda bizning g'alaba qozonishimizni kuting", degan jur'atli taklifni bildirgan edi.

Nasaviy asarida Jaloliddin mard, jasur jangchi, olijanob hukmdor, ilm-fan homiysi sifatida gavdalangan. Tahlikali vaziyat tug'ilgan.

Bunday hollarda sulton shiddat bilan dushman ustiga bostirib borib, jangchilarini ruhlantirgan. Jaloliddin dushmanning nomdor, kuchli polvonlari bilan yakkama-yakka jang qilishdan cho'chimagan. Nasaviydan boshqa muarrixlarning hikoya etishicha, gurgilar bilan bo'lgan bir jang oldidan ikki qo'shin ko'z o'ngida Jaloliddin jussasining birmuncha kichikligiga qaramay, yakkama-yakka olishuvda devqomat bir gurji pahlavonini, so'ng uning uch o'g'lini, keyin yana bir dushman askarini o'ldiradi. Bundan uning jangchilari nihoyatda ruhlanadi.

Nasaviyning guvohlik berishicha, vaqtining nihoyatda tig'izligiga qaramay, u olimu fuzalo bilan uchrashishga imkon topgan. Jaloliddin bir ramazon oyida Tabrizda o'ttizta ulamoni nomma-nom tanlab, va'z o'qishga tayinladi. Ulardan har biri bir kundan va'z o'qirdi, bu paytda sulton minbar yaqinidagi taxtida o'tirardi. U va'z o'qish asnosida haqiqatni aytganlarga minnatdorlik bildirar, aksincha, o'zini haddan oshiq maqtab, haqiqatni xaspo'shlaydiganlarga tanbeh berardi. Sadriddin al-A'laviy al-Marogiy sulton maqtoviga sazovor bo'lganlardan biri edi", deb yozadi Nasaviy.

Jaloliddin yoshligida davrining buyuk allomasi. Najmiddin Kubro hazratlaridan ta'lim olgan, adabiyot va san'atni sevgan, she'rlar ham. yozgan. Bu haqda eronlik Rizoqulixon Hidoyatning "Majma ul-fusaho" tazkirasida ma'lumot bor. Tazkirada Jaloliddinga oid go'zal bir forsha ruboiy ham keltirilgan.

Nasaviyning asarida sultonning xalqparvar, adolatpesha, bag'rikeng va kechirimli bo'lganini ko'rsatuvchi misollar bisyor. Jumladan, Jaloliddin Tabriz va uning atrofi aholisi qiyin ahvolda qolganini ko'rib, xalqni "uch yillik xirojdan ozod etdi", odamlarni non, otlarni yem bilan "ta'minlash imkoniyati yo'qligini bilgach, Sharafulmulkning don saqlanadigan omborlarini ochishga buyruq berdi, bu yerdagi donni novvoyxona va otxonalarga berishni buyurdi".

Isyon ko'targan Balbon omonlik so'rab qo'lida qilichi va kafanligi bilan sulton huzuriga chiqdi. Sulton uni kechirdi, ko'nglini ko'tardi. Shuningdek, Jaloliddin o'ziga qarshi qilich ko'targan Igan Toisiyga "omonlik berdi va himoyasiga oldi". Manguberdi "eng yaxshi xizmat qilganlarga mehribonlik ko'rsatar", ularga bergan va'dasining ustidan chiqar edi. Ayni chog'da sulton xiyonat va sotqinlik ko'chasiga kirgan, qasamini buzgan amal- dorlarni, kim bo'lishidan qat'i nazar, jazolagan. Nasaviy asarida bunga ham misollar bisyor.

Nasaviy asarida bunga ham misollar bisyor.

Jaloliddin Xorazmshoh ozodlik kurashining yalovbardori bo'ldi, to'xtovsiz o'tgan kurash yillarida uddaburon tashkilotchi, atoqli sarkarda va ulkan davlat arbobi sifatida o'zini ko'rsatdi. U qisqa vaqt ichida Xorazmshohlar imperiyasining janubi-

gʻarbida, Eron, Xuroson, Ozarbayjon, Iroq hududida davlatni tikladi, qoʻshin boshini birlashtirdi, butun bilimi, kuchini vatan mudofaasiga qaratdi va bu yoʻlda katta muvaffaqiyatlarga erishdi ham. Biroq pirovardida, islom davlatlari hukmdorlarining kaltabinligi, ichki ziddiyatlar, amaldorlarining sotqinligi oqibatida Jaloliddin moʻgʻullarga dosh bera olmadi va 1231-yil avgustda shahid ketdi.

Jaloliddin Manguberdi singari ulugʻlarimizning ruhini yod etish, uni yoshlarga namuna sifatida taqdim qilish maʼnaviy hayotimizda katta ahamiyatga ega.

Jaloliddin Manguberdi bugun Oʻzbekiston uchun afsonaviy qahramon boʻlsada, dunyo u haqida kam biladi. Uning harbiy iqtidoriga asosiy dushmani Chingizxon ham tan bergan edi. Manguberdi moʻgʻul qoʻshinlari bilan bir qancha janglarda zafar qozongan holda oʻlimi sirli kechdi.

Jaloliddin Manguberdi bugun Oʻzbekiston uchun afsonaviy qahramoni Uning harbiy iqtidoriga asosiy dushmani Chingizxon ham tan bergan edi. Manguberdi moʻgʻul qoʻshinlari bilan bir qancha janglarda zafar qozongan.

Moʻgʻullar istilosiga qarshi juda koʻp sarkardalar va davlat arboblari kurashishgan. Ularning nomlari ham oʻz davrining fidokorlari sifatida tarixdan joy olgan. Ammo, koʻhna tarix bu borada birinchi navbatda Jaloliddin Manguberдини oʻz xotirasida avaylab asraydi. U faqat bosqinchilarga qarshi fidoyi kurashchigina emas, balki turli xalqlar ustiga yopirilgan balo-yu qazolarga oʻzini tutib, moʻgʻullarning dodini bera olgan yagona lashkarboshi, hamda davlat rahnamosi sifatida mangulik mulkidan oʻrin egallagan. U dushman ustidan uzil-kesil gʻalabaga erishib, davlatni qayta tiklash orzusi ushalishiga juda yaqin keldi. Ammo, bunga gʻanimning kuch-qudrati emas, oʻzining ittifoqchilari hamda yaqinlari sanalgan koʻplab hukmdor va lashkarboshilarning munofiqliklari va xiyonatkorliklari yoʻl qoʻymadi. Eng qaltis vaziyatlarda ular oʻzlarining arziyas manfaatlarini koʻzlab, qoʻshinlari bilan xorazmshohni tark etdilar. U esa yonib kulga aylangan va kuldan qayta tugʻilib, olov tarata boshlagan Qaqnus kabi oʻzini koʻrsataverdi. Chingizxonning bor shon-u shavkati, qudrati asrlar oʻtib uning tillarda, dillarda doston boʻlgan dovrugʻi soyasiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султоғ Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / Камол Матёкубов таржимаси/ Т.: О'zbekiston.
2. Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо. (Жаҳон фотиҳи тарихи). Масъул муҳаррирлар: Ҳ. Болтабоев, М. Маҳмудов. Тош- кент: MUMTOZ SOZ, 2015-504 б.

3. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-таърих. Пол ный свод истории / Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова (до полнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина). Ташкент: Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005. 595 с.
4. Рашид ад-Дин. Сборник летописей: в 3 т. / Пер.: А.К. Арендс, Ю.П. Верховский, О.И. Смирнова. Л.А. Хетагуров. М., 2002. Кн. 1-2.2-3

Ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim texnologiyalari va innovatsion faoliyat.

Qoraqolpoq Davlat Universiteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Madaminova Sarvinoz Sa'dulla qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni va ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish natijasida ta'limda sifat va samaradorlik ta'minlanib haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, innovatsion texnologiyalar, sifat va samaradorlik, pedagogik innovatsiya, innovatsion faoliyat.

Bugun mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan kompetentsiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish natijasida ta'limda sifat va samaradorlik ta'minlanib, pedagogik innovatsion jarayon vujudga keladi.

Pedagogik innovatsiya-bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u oldingi egallangan bilimlar asosida ta'limda sifat jihatidan o'zgarishlar qilib, yuqori samaradorlikka erishishga yangicha yondashuv qilishdan iboratdir.